

**TOG'AY MUROD ASARLARIDA MILLIY QAHRAMON MASALASI****Qodirova Dilnoza Alisher qizi****Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat****o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti**

**Annotatsiya:** maqolada Tog'ay Murod asarlarida, aniqrog'i hikoya va qissalarida milliylik tasvirining o'ziga xos xususiyatlari haqida ba'zi fikr va xulosalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliylik, qissa, an'ana va urf-odatlar, tasvir, badiiy tahlil

Dunyoda millatlar va elatlar qanchalik ko'p bo'lmasin, shoir va yozuvchilar ham shunchalik yetarli. Lekin har bir qushning o'z xonishi bo'lgani kabi har bir shoir va yozuvchining ham o'z ijod yo'li va o'ziga xos uslubi mavjuddir. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shoir va yozuvchilarni inson ruhining muhandislari deya ta'riflaydilar. Jamiyatimizda ijodkorlarning, ya'ni yozuvchi va shoirlarning qadim zamonlardan o'rni bo'lak bo'lib kelganligi hech kimga sir emas. Sho'ro tuzumida esa ularning xo'rlangani-yu xorlanganini ham bilamiz. Ozingina xat-savodni tanigan, ijod qilishni ko'ngliga tuggan yosh ijodkorlarning ham boshlariga qanday ko'rgiliklar yog'ilmadi deysiz.

- "Men bir qora kunda tug'ildim,  
Tug'ildim-u shu on bo'g'ildim", - degan edi shoir H.Olimjon

Lekin bunday qora kunlarning tugashiga umid qilib yashagan "qora" xalqimiz, o'z niyatiga yetdi. Barcha ozod davlatlar qatori biz ham o'z erkimizni qo'lga kiritdik.

Bu mustaqillik yo'lida esa jon kuydirgan qanchadan qancha jadidchilarimiz, yosh, biz bilgan va bilmagan ijodkorlarimiz o'z jonlarini qurbon qilishdi. Chor Rossiyasi hukmronligi davrida kitob u yoqda tursin, oddiy qog'ozlarga ham ijod qilolmagan yozuvchilarimiz qancha edi?! Lekin bu qora kunlar o'tib, bizning tomonlarda quyosh porladi. O'zbek



romanchiligiga asos solindi, ilk o‘zbek teatrlari, pyesalari qo‘yila boshlandi. Albatta, bular jadidchilarimiz tomonida 1900-1920 yillarda amalga oshirilgan ishlar bo‘lsa-da, jadidchilarimizning jasorati, shijoat va qat‘iyati orqasidan qilingan ishlar edi. Sekin-astalik bilan adabiyotimiz rivojlana boshlanadi. Avval jadidchilarimiz, so‘ngra XX asrning 30-40 yillarida o‘z ijod namunalari bilan gullashni boshlagan bir qator shoir va yozuvchilarimiz shular jumlasidandir. O‘tgan asrning 70-80-yillarida esa o‘zbek adabiyotida Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sulton, Erkin A‘zam va Tog‘ay Murod kabi bir qator yangi nomlar paydo bo‘ldi.

Yuqorida nomi keltirilgan adiblarimiz ichidan esa tadqiqotimizning asosiy mavzusi bo‘lgan Tog‘ay Murod haqida so‘z boshlaymiz. Milliylik degan tushuncha har bir davrdagi o‘ziga xoslikni saqlab qolishga yordam beruvchi eng muhim asos. Ya‘ni milliylik asarning har tomonlama o‘qishli bo‘lishini ta‘minlovchi bo‘lakdir. Internet manbalarida yana shunday tushunchalar ham borki, “milliylik turli xalqlar adabiyotlar o‘rtasida to‘siq emas balki adabiyotlarning yashash tarzidir. Umuminsoniy muammolar har bir xalq adabiyotida takrorlanmas o‘ziga xos o‘ziga xos milliy xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Adabiyot va san‘atning milliyliги umuminsoniy mohiyatga egadir. Umuminsoniylik milliylikning mohiyatidir, milliylik esa umuminsoniylikning namoyon bo‘lishidir. Nihoyat, adabiyotning umuminsoniyliги milliy xususiyatlarini yo‘qolib borishi hisobiga emas, balki uning rivojlanishi, takomillashuvi o‘z mohiyatini chuqurroq yuzaga chiqarish hisobiga yuz beradi”<sup>1</sup>.

Milliylik, deb yozgan edi V.G. Belinskiy, “Yozuvchining xizmati emas balki ijodning shoir tomonidan uncha zo‘r berishni talab qilmaydigan zaruriy shartidir. Shuning uchun ham asar badiiy jihatdan qanchalik yuksak bo‘lsa, u shunchalar milliydir, ulug‘ san‘atkorni milliyliги uchun maqtash ulug‘ astronomni o‘z hisob-kitoblaridagi karra jadvalida adashmaganligi uchun maqtashday gap... milliylik shoirni ulug‘ qilmaydi, balki buyuk talent shoirni milliy qiladi... agarda asar badiiy bo‘lsa, u o‘z-o‘zidan milliy bo‘ladi”.

Asarlarda xalq ruhiyatini, ularning psixologiyasini, millatning milliy xarakterini, milliy urf-odatlarini ochib berish ham milliylikning bir bo‘lagidir. O‘tgan asrdagi

<sup>1</sup> [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)



adabiyotlarda keltirilishicha, oldinlari milliylik faqat asarning tilida namoyon bo‘ladi degan xulosa bo‘lgan hozirgi zamonaviy adabiyotda esa bu tushuncha eskirgan. Hozirgi zamonaviy adabiy jarayonda milliy xarakter yoki asarda milliylik kayfiyati bo‘lishi uchun faqat tilgina kerak emas. Badiiy asarning milliyliigi va umuminsoniyliigi asarning tilidan tashqari unda keltirilgan badiiy tasvir vositalari, asarda keltirilgan milliy tafakkur, asarda keltirilgan geografik joylashuv va tabiiy sharoit kabi vositalarga ham bog‘liq.

Yuqorida asarda dialektlarning qo‘llanilishi, sheva va lahjalar haqida so‘z yuritganimizda, asarning milliyligini ta‘minlovchi asosiy vosita til ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Tog‘ay Murod o‘z asarlaridagi milliylikni o‘zi tug‘ilib-o‘sgan joyning shevasi(tili) bilan ochib berishga harakat qildi. “Shevasiz tili, - degan edi folklorshunos olim Bahodir Sarimsoqov – eng shukuhsiz va jozibasiz til. Mana shu bois, o‘zbek ijodkorlari o‘z asarlaridagi til badiiyatini ta‘minlashda o‘zlari mansub bo‘lgan shevalarga murojaat etadilar”<sup>2</sup>.

“Tog‘ay Murod asarlarida biz aniq o‘tgan zamon fe‘llaridan foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Aniq o‘tgan zamon fe‘li ma‘no jihatidan harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan nutq so‘zlanib turgan paytdan oldin bajarilganligini anglatadi. Bunda so‘zlovchi harakatning bajarilganligini ko‘rgandek yoki uning guvohi bo‘lgandek xabar qiladi. Aniq o‘tgan zamon fe‘llari o‘zlaridagi qo‘shimchalarning turli-tumanligi bilzn xarakterlanadi va bu jihatdan o‘tgan zamon fe‘llarining boshqa turlaridan ajralib turadi.

Bobomiz hovlisi Farg‘onada bo‘ladi.

Dalasi Farg‘ona adog‘ida bo‘ladi.

Bobomiz dalasi oldidan bir ariq suv oqadi.

Suv gavhar zilol-gavhar zilol suv bo‘ladi.

Suv egilmish tollar majnun-majnun sollaradi.

Bobomiz hovlisi Farg‘onada bo‘ladi – ish-harakat kelasi zamonda qo‘llanilmoqda. Lekin biz uni o‘qish jarayonida aniq o‘tgan zamon voqealariga guvoh bo‘lamiz. O‘zbek asabiy

<sup>2</sup> Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: S Ahmedova bosmaxonasi, 2004. – B.118



tilidagi singari, o‘zbek xalq shevalarida ham fe’ning zamon formalari xilma-xil bo‘lib, ular o‘ziga xos xarakterli tomonlarga egadir.

Bizningcha, bu jumlada fe’l zamonlari qanday formada berilishidan qat’iy nazar, ularni o‘tgan zamon formasida qabul qilishimiz o‘rinli bo‘lar edi”<sup>3</sup>, - deyiladi Abubakir O‘rozovning doktorlik dissertatsiyasida.

Marifat Qosimova O‘z tadqiqotlarida, badiiy asarda personaj nutqining fonetik o‘zgachaligi hamda uslubiy vositalarning qo‘llanishida qahramonning emotsional holatiga badiiy bo‘yoq berish, tasvir ta’sirchanligini oshirishda asar badiiyligini ta’minlovchi fonostilistik asoslardan biri deb hisoblaydi<sup>4</sup>.

Milliylik adibimiz Tog‘ay Murod asarlaridagi qahramonlarning nutqida ko‘p ishlatilgan maqol va matallarda yaqqolroq ko‘rinadi. L.N.Tolstoy ta’biri bilan aytganda, “har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosi ko‘rinadi”. Zero, xalq maqollari umuminsoniy g‘oyalarni milliy shaklda targ‘ib qiluvchi janr hisoblanadi. Ular odatda xalq madaniyati mahsulidir.

Tog‘ay Murod asarlarining boshqa yozuvchilarimizning asarlariga o‘xshamaydigan jihatlari juda ko‘p. ijodkorning uslubida, asarining tilida buni sezish qiyin emas, albatta. Uning o‘ziga xos yozuvchilik uslubi – nazmda bitilgan nasrga o‘xshaydi. Lekin she’rdagi kabi vazn, qofiya yo‘q. Jumalari qisqa, xalq tiliga yaqin, she’rdagi kabi tovush va so‘zlar ko‘p. uning asarlarini baxshilarimizning sodda ijodiga o‘xshatsa bo‘ladi. Ya’ni bir tomoni shundaki, milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar, maqollar, so‘zlashish tarzi surxondaryocha uslubda namoyon bo‘ladi. Asardagi butun tasvir o‘zbek millatining qaysidir hududining qavmiga tegishli mahalliy tasvirdek namoyon bo‘ladi.

Pirimqul Qodirov o‘z xotiralarida shunday yozadi: “Tog‘ay Murod qissalari adabiyotimizga Surxon vodiysining o‘ziga xos nafasini olib kirdi, mehnatsevar, kamtar vat anti chorvadorlar, bog‘bonlarga nisbatan dilimizda samimiy mehr uyg‘otdi. “Ot kishnagan oqshom” qissasi “Alpomish” dostoni an’analarini eslatadigan xalqchil ruh bilan sug‘orilgan.

<sup>3</sup> O‘rozov A. Tog‘ay Murod asarlarida milliy xarakter yaratish mahorati.

Filol. fanlari nomzodi ... diss. – T., 2021

<sup>4</sup> Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog‘ay Murod asarlari asosida).

Filol. fanlari nomzodi ... diss. Avtoref. – T., 2007. – B.8.



Tog‘ay Murodning o‘zi ham Alpomish va Barchinlarni bergan go‘zal vodiylar, bepoyon yaylovlarda o‘sganliggi uning so‘z boyliklaridan, yozuvchilik uslubi va o‘ziga xos ovozdin sezilib turadi. Nasriy asarga she‘riy jarang va ko‘tarini ruh bag‘ishlay olish qobiliyati yosh adibning qalamiga xos eng yaxshi fazilatlardandir”<sup>5</sup>.

“Shu ma’noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz. Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma’no-mazmun bilan boyitadigan va to‘ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g‘alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o‘zi mushkul bir muammo. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o‘ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so‘zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma’naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir”<sup>6</sup>.

Yozuvchimiz Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi” asarida Bo‘ri polvon yo‘qolib borayotgan qadriyatlarimizni bir-bir eslab turadi. Va yoshlarga shunday murojaat etadi:

“Avlodlar almashgan sayin... yo, pirim-e. tuf-tuf-tuf... avlodlar almashgan sayin... yurak yo‘qolib boryapti!

Jasad bor! Aql bor!

Yurak yo‘q!

To‘rt muchal bor! Kuch-quvvat Bor!

Yurak yo‘q!

<sup>5</sup> Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – T.: Adabiyot va san‘at,1985. – B. 155

<sup>6</sup> Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. B.8.



Ko'krakda jon bor!

Yurak yo'q, yurak!.. Farzandlar hayotga beparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilik farqiga bormaydi<sup>7</sup>. “Tog‘ayning «Ot kishnagan oqshom» qissasi chop etilishida mening ham hissam borligini boya aytib o‘tgan edim. Uning asarlarida shira bor, milliylik bor, adibning aytadigan gaplari bor. «Ot kishnagan oqshom» qissasi Yo‘ldosh Oxunboboev nomidagi Yosh tomoshabinlar teatrida rejissyor Olimjon Salimovning instsenirovkasi bo‘yicha sahnaga qo‘yildi. Ba‘zilar aytishi mumkin: «Xo‘sh, nima bo‘pti, rejissyor o‘zi instsenirovka qildi, o‘zi qo‘ydi», deb. Yo‘q, agar asarning negizida gapi bo‘lmasa, rejissyor uni hech narsa qilolmaydi. «Xo‘p, olib chiqsa nima bo‘pti?!» — ham deyishar. Bizda nima ko‘p — sahna asari ko‘p. Shularning ichidan faqat Tog‘ayning asarini tanlab, qardosh Qozog‘iston Davlat akademik teatri o‘z sahnalarida qozoqchaga o‘girib gumburlatib qo‘yayotganiga nima deysiz? Bu tasodifmi? Yo‘q, bu tasodif emas. Asarda qozoq birodarlarimizga ma‘qul keladigan biror gapi borki, sahnalashtirgan. Shu paytgacha Abdulla Qahhorning «Og‘riq tishlar»i bilan Said Ahmadning «Kelinlar qo‘zg‘oloni» qozoq sahnasi yuzini ko‘rgan edi. Bular ilgarigi davrda edi. Tog‘ay Murodniki esa istiqlolimiz davriga to‘g‘ri keldi. Davr masalasini hisobga olsak, unda qardoshlar sahnasiga chiqqan bizning asarimiz yakkayu yagona shu Tog‘ay Murodniki bo‘lib qoladi. Shuning o‘zi ham ancha narsani anglatmaydimi, axir? Bu asar, demak, qardoshlarimizga ham ma‘qul bo‘libdi. Nimasi ma‘qul bo‘ldi ekan? Ma‘lumingizki, Qozog‘iston asosan chorvador respublika. Paxtachilik qanchalik bizning milliy xarakterimizni belgilaydigan bo‘lsa, ularda chorvachilik, chorva aksari xalqning kasb-korini belgilaydigan soha. Ot, qoramol, qo‘y, echki qozoqlarning joni. «Ot kishnagan oqshom» asari faqat ot kishnagani uchun emas, balki tasvirlanayotgan ob‘ektga munosabati bilan, odamlarning dardini haqqoniy ayta bilgani bilan ham qardoshlarimiz sahnasi yuzini ko‘rishga munosib deb topildi. Ba‘zan ba‘zan nega bizning adabiyotimiz jahonga chiqmaydi, deganga o‘xshagan gap-so‘zlar bo‘lib turadi. Jahonga chiqish uchun biz yaratgan asarlarda jahonshumul muammolar ko‘tarilishi, baquvvat-baquvvat qahramonlar yaratilishi kerak.

<sup>7</sup> Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. Yulduzlar mangu yonadi. – T.: Sharq, 2008 – J. I: - B.46



Men hech ikkilanmay aytishim mumkinki, Tog‘ay Murodning keyingi romanlari, agar malakali tarjimonning qo‘liga tushib, ko‘ngildagidek tarjima qilinsa, boshqa yurtlardagi o‘quvchilarning javonlaridan ham o‘rin olishi turgan gap. Men shu yoshga kirib shunga amin bo‘ldimki, yozuvchidan keyin uning asarlarini targ‘ib qiladigan kimdir qolishi kerak ekan. Mana, Ma’suma shu yo‘ldan borib jon kuydiryapti. Tog‘ay Murodning asarlarini chet tillarga tarjima qilib chop etilishi uchun ham uni qo‘llab-quvvatlab turadigan tashkilot, jonkuyar odam bo‘lishi kerak. Menimcha, uning asarlaridan biri xalqaro tillardan biriga tarjima qilinib chop etilsa bas, uyog‘ini asarning o‘zi tortib ketadi. Tog‘ay menga ukadek aziz, do‘stdek qadrdon edi. Nachora, Ollohning irodasi ekan, umri qisqa bo‘ldi. Yashab, ijod qilib yursa bo‘lardi. Afsuski, yaratgan Egam o‘zi berganini o‘zi oladi. Lekin Tog‘ay Murod ozgina yashagan bo‘lsa ham sozgina asarlar yaratib, o‘ziga haykal qo‘yib ketdi. Ukamizning joyi jannatda bo‘lsin”<sup>8</sup>!

Talabalik davrida kitob do‘konlarini aylanib, yangi nashr etilgan badiiy asarlarni xarid qilishga oshiqardik. Kunlarning birida «Ot kishnagan oqshom» kitobiga ko‘zim tushdi. Sarlavhasining o‘ziyoq e’tiborimni tortdi. Uyga kelib, asar mutolaasiga berildim. Aytish joizki, bu mening qissalar muallifi Tog‘ay Murod bilan ilk muloqotim, tanishuvim edi. Qissalarni o‘qir ekanman, unda yozuvchi borlig‘ini, qalb haroratini sezib turardim. Adib qalbidagi ehtiros asarlariga joziba, jon bag‘ishlagan edi. Xususan, uning inson botiniyu zohirini aniq-tiniq ifodalashi, tabiat nafosatini turfa rang, betakror ohangda yoritib berishi meni maftun etdi. Tog‘ay Murod ilk «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida Bo‘ri polvon obrazi orqali imon-e’tiqod, or-nomusni talqin etdi. Men asarda kurash sahnasini, aniqrog‘i, davrasini zavq bilan tomosha qildim, polvonlar mardligi, g‘ururini yuksak qadrlashidan faxrlandim. Yozuvchi polvonlarning o‘zini uch balo: ayolbozlik, ichkilikbozlik, nafs balosidan asrashiga urg‘u berishida mantiq bor. Mazkur shartlar nafaqat polvonlarga, balki odamzotga, umumga taalluqli. Zero, bu illatlardan xoli insongina bu dunyoda halol, xotirjam kun kechiradi.

Tog‘ay Murod olam va odam uyg‘unligini «Ot kishnagan oqshom» qissasida Ziyodulla kal va Tarlon ot misolida badiiy tadqiq etgan. Adib otni ta’riflabgina qolmay, uni

<sup>8</sup> Men qaytib kelaman. Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.



yorqin bo‘yoqlarda chizib beradi: «Tarlon dumlari yoyildi, yollari hurpaydi. Yollari bir chap bo‘ynida, bir o‘ng bo‘ynida o‘ynadi! Bu yol emas, ipak, ipak! Bu yol emas, do‘mbira tori, do‘mbira tori! Gajak-gajak bo‘yinlar bo‘yin emas, do‘mbira, do‘mbira!» Ziyodulla otni darddoshi, qadrdoni bilib sirlashishi, so‘zlashishi kishi ko‘ngliga epkinlik olib kiradi. Qissa o‘quvchida otga, atrof-olamga mehru muhabbat uyg‘otibgina qolmay, jonzotlar qalbini his qilishga o‘rgatadi. Asarlarini o‘qib, o‘zlashtirib borar ekanman, adib ijodining yangi qirralarini kashf qilishga intildim. «Oydinda yurgan odamlar» asarida yurak-yurakdan silqib chiqqan musiqani his qildim. Pok tuyg‘ularni oy jilosida jilvalantirgan muallif iste’dodiga tan berdim. Qoplon va Oymomo timsolida vafosadoqat, muhabbat, sabr-bardosh nozik ifodalangan. Adib milliy qadriyat, an’analarni asar ruhiga mohirona singdirib yuborgan. Garchi asarda mahzun ohang yetakchi bo‘lsada, har bir lavhada o‘zgacha tarovat mujassam: «Ko‘zlaringga boqishlarim... boqishlarimizning o‘zi bir doston, momosi. Bovujud shoirlar bilmadi, bilsa, elga yoyardi... Men senga aytsam, momosi, boqishlarda hali o‘zimizniki...» Qahramonning dil nomalari, sof muhabbati, ko‘ngil rozlari o‘quvchida lirik kayfiyat tug‘diradi. Tog‘ay Murod qissalaridagi aniq va izchil ifoda, musiqiylik, siqqlik, ma’no va ohang uyg‘unligi menda uning ijodiga katta qiziqish uyg‘otdi”<sup>9</sup>.

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G‘ofurov Tog‘ay Murod singari bir qator yozuvchilar ijodi haqida to‘xtalib, ular ijodining umumiy va alohida tomonlarini bayon qilgan edi: “...Ular o‘z temalarini, hayotini yoritish uslub, yo‘sinlarini topib olganlar. Ularnig ijodi o‘ziga xos yo‘llardan o‘sib borayotganligini hech kim inkor etmaydi. Keyingi yillar ichida ularning asarlari va yaratgan qahramonlari, uslubiy izlanishlari xususida bo‘lib o‘tayotgan qizg‘in bahslar va ularda ochilayotgan adabiy haqiqatlar shundan dalolat bermoqda. Ular adabiyotimizga vijdoni g‘alayonda bo‘lgan inson obrazlarini olib kirishga intilmoqdalar. Bu ularning yutuqlari ham, yo‘qotishlari ham oz emas...”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sarimsoqov B. Badiiylilik asoslari va mezonlari. – T.: S Ahmedova bosmaxonasi, 2004. – B.118

<sup>9</sup> Men qaytib kelaman. Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.





2. Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiytalari (Tog‘ay Murod asarlari asosida) Fil. fan. nom. ... diss. Avtoref. T., 2007
3. O‘rozov A. Tog‘ay Murod asarlarida milliy xarakter yaratish mahorati. Filol. fanlari nomzodi ... diss. – T., 2021
4. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. Yulduzlar mangu yonadi. – T.: Sharq, 2008. – J. I: -B. 97.
5. Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – T.: Adabiyot va san'at,1985. – B. 155

